



VOLUME 11, NOVEMBER 2025

ISSN: 3060-4958



The Lingua Spectrum

"A special kind of beauty exists which
is born in language, of language,
and for language."

– GASTON BACHELARD



**UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY**

MORE INFO:

www.lingvospektr.uz 

t.me/thelinguaspectrum 

The Lingua Spectrum Journal
Volume 11
(2025 yil noyabr)

TOSHKENT-2025

Xolid Husayniy asarlarining o'zbek tilidagi tarjimalari va ularning badiiy xususiyatlari

Abidova Zilola Xabibullayevna

PhD,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya *Mazkur maqolada afg'on-amerikalik mashhur yozuvchi Xolid Husayniy ijodining o'zbek tiliga qilingan tarjimalari kompleks tarzda tahlil etiladi. Tadqiqotning diqqat markazida yozuvchining "Shamol ortidan yugurib" ("The Kite Runner"), "Tog'lar yangraganda" ("And the Mountains Echoed") va "Ming quyoshli shahar" ("A Thousand Splendid Suns") kabi romanlari turadi. Ushbu asarlarning o'zbek tiliga o'girilish jarayoni, tarjimonlarning uslubiy va lingvistik yondashuvlari, shuningdek, madaniy kontekstning moslashtirilishi masalalari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Husayniy romanlarining ijtimoiy-madaniy muammolarni yoritishdagi o'rni va ularning insoniy fojialar, ruhiy kechinmalar, ijtimoiy tengsizlik, ayollarning taqdiri kabi mavzularni o'zbek o'quvchisi ongiga qanday tarzda yetkazgani baholanadi. Yozuvchining insoniy qadriyatlar, vijdon, sadoqat va kechirim mavzulariga bo'lgan yondashuvi o'zbek kitobxonining dunyoqarashi va badiiy didida qanday aks etgani misollar asosida tahlil qilinib, tarjima jarayonida milliy tilning ekspressiv imkoniyatlari, so'z tanlovi va stilistik moslashuv, madaniyatlararo kommunikatsiya, hamda asliyatga sodiqlik va ijodiy erkinlik muvozanati masalalari alohida tahlil qilinadi. Mazkur tarjimalar orqali o'zbek kitobxonining global adabiyot bilan aloqasi mustahkamlanib, zamonaviy insoniy qadriyatlarning universalligi o'zbek tilida ifodalanish imkoniyatlari kengaygan.*

Kalit so'zlar *Xolid Husayniy, tarjima, badiiy xususiyat, tarjimonlik uslubi, asliyatga sodiqlik*

Переводы произведений Халеда Хоссейни на узбекский язык и их художественные особенности

Абидова Зилола Хабибуллаевна

PhD,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Аннотация *В данной статье представлен комплексный анализ переводов произведений известного афганско-американского писателя Халеда Хоссейни на узбекский язык. Основное внимание уделено романам писателя «Бегающий за ветром», «И эхом отдавались горы» и «Тысяча сияющих солнц». На научной основе рассматривается процесс перевода этих произведений на узбекский язык, методологические и лингвистические подходы переводчиков, а также вопросы адаптации культурного контекста. Оценивается роль романов Хоссейни в освещении социокультурных проблем и то, как они доносят до сознания узбекского читателя такие темы, как человеческие трагедии, духовные переживания, социальное неравенство и судьба женщины. На примерах анализируется подход автора к темам человеческих ценностей, совести, верности и прощения. Отдельно анализируются выразительные возможности национального языка, выбор слов и стилистическая адаптация, межкультурная коммуникация и баланс между верностью*

оригиналу и творческой свободой в процессе перевода. Благодаря этим переводам укрепилась связь узбекского читателя с мировой литературой, расширились возможности выражения универсальности современных общечеловеческих ценностей на узбекском языке.

Ключевые слова *Халед Хоссейни, перевод, художественные особенности, стиль перевода, сохранение аутентичности*

Translations of Khaled Hosseini's works into Uzbek and their artistic features

Abidova Zilola Khabibullayevna

PhD,

Tashkent State Institute of Oriental Studies

Annotation *This article comprehensively analyzes the translations of the works of the famous Afghan-American writer Khaled Hosseini into the Uzbek language. The focus of the study is on the writer's novels "The Kite Runner", "And the Mountains Echoed", and "A Thousand Splendid Suns". The process of translating these works into the Uzbek language, the methodological and linguistic approaches of the translators, as well as the issues of adapting the cultural context are examined on a scientific basis. The role of Hosseini's novels in illuminating socio-cultural problems and how they convey such topics as human tragedies, spiritual experiences, social inequality, and the fate of women to the minds of the Uzbek reader are assessed. The author's approach to the themes of human values, conscience, loyalty, and forgiveness is analyzed based on examples, and the expressive capabilities of the national language, word choice and stylistic adaptation, intercultural communication, and the balance between fidelity to the original and creative freedom are separately analyzed in the translation process. Through these translations, the Uzbek reader's connection with global literature has been strengthened, and the possibilities for expressing the universality of modern human values in the Uzbek language have expanded.*

Keywords *Khaled Hosseini, translation, artistic features, translation style, fidelity to the originality*

Kirish

Tarjima adabiy jarayonning ajralmas bo'lagi bo'lib, turli xalqlar o'rtasida madaniy muloqotni yo'lga qo'yadi va o'zaro adabiy aloqalarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Xususan, jahon adabiyotining yorqin vakillari asarlarini milliy tilga o'girish orqali kitobxon nafaqat boshqa xalqlarning madaniy merosi bilan tanishadi, balki yangi estetik va badiiy tajribaga ega bo'ladi.

So'nggi yillarda o'zbek tarjimachiligida jahon adabiyotining zamonaviy namunalari tobora keng tarjima qilinmoqda. Ular orasida afg'on-amerikalik yozuvchi Xolid Husayniyning asarlari alohida o'rin egallaydi. Uning "Chimildiq uchuvchi" (*The Kite Runner*), "Tog'lardan aks-sado" (*And the Mountains Echoed*) va "Ming quyosh shukuhida" (*A Thousand Splendid Suns*) kabi romanlari dunyo miqyosida keng o'quvchilar e'tiborini qozongan. Bu asarlarda Afg'oniston tarixidagi

ijtimoiy-siyosiy voqealar, insoniy fojialar, urushning ruhiy oqibatlari va oilaviy munosabatlar tasvirlangan. Shuningdek, yozuvchi milliy mentalitet, an'analar va shaxsiy taqdirning o'ziga xos badiiy uslubda yoritadi.

Mazkur romanlarning o'zbek tiliga tarjima qilinishi ikki tomonlama jarayonni ko'rsatadi: bir tomondan, jahon adabiyoti namunalarining milliy adabiyotimizga kirib kelishi, ikkinchi tomondan esa o'zbek kitobxonining global adabiy jarayonga yanada yaqinlashishi. Tarjima jarayonida asarlarning badiiy va lingvistik qatlamlarini saqlash, madaniy kontekstni to'g'ri yetkazish, tarjimonning ijodiy erkinligi va asliyatga sodiqligi kabi masalalar alohida ilmiy tahlilni talab qiladi.

Ushbu maqolada Xolid Husayniy asarlarining o'zbek tiliga qilingan tarjimalari lingvistik va badiiy nuqtai nazardan o'rganiladi, tarjimonlarning uslubiy yondashuvlari tahlil qilinadi hamda ushbu tarjimalarning milliy adabiy jarayonga ko'rsatgan ta'siri yoritiladi.

Adabiyotlar sharhi

Tarjima nazariyasi va amaliyoti bo'yicha ilmiy qarashlar uzoq tarixga ega. O'zbek adabiyotshunosligida Fitrat, Oybek, G'afur G'ulom kabi ijodkorlarning tarjima masalalariga oid fikrlari tarjimonlik faoliyatini ilmiy va nazariy asoslashda muhim o'rin tutadi. Fitratning "Adabiyot qoidalar" asarida badiiy asarning estetik xususiyatlarini boshqa tilga ko'chirishdagi murakkabliklar haqida so'z yuritiladi. Oybek esa tarjimoni "ijodiy jarayon" deb baholab, tarjimonning mas'uliyati, til va uslubga sezgirligi haqida ta'kidlaydi (Oybek, 1960).

Keyingi davr adabiyotshunoslaridan B.Qosimov, N.Niyozmetov, A.Suyunovlarning tadqiqotlarida jahon adabiyotini o'zbekchaga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan lingvistik va estetik muammolar yoritilgan. Xususan, Shekspir, Bayron va Shouning o'zbekchaga qilingan tarjimalarida ekvivalentlik, milliyalashtirish va ijodiy erkinlik muammolari keng muhokama qilingan.

Xorijiy manbalarda ham tarjima nazariyasi bo'yicha turli yondashuvlar mavjud. S. Bassnettning *Translation Studies* asarida tarjima jarayonida madaniy kontekstning roliga alohida urg'u beriladi. L.Venutining *The Translator's Invisibility* kitobida tarjimonning ko'rinmasligi va kitobxon uchun tabiiy matn yaratish prinsiplari tahlil qilinadi. A.Lefevere esa adabiyot tarjimasida ideologik va madaniy omillarning ta'sirini o'rganadi (Ahmad, 2018).

Bevosita Xolid Husayniy asarlari bo'yicha esa ko'plab xorijiy tadqiqotlarda uning romanlaridagi muhojirlik, urush oqibatlari, insoniy fojialar va madaniy tafovutlar tahlil qilingan. O'zbek tiliga qilingan tarjimalar esa, hozircha ilmiy adabiyotlarda keng tadqiq etilmagan bo'lsa-da, ayrim maqolalarda tarjimalarning til xususiyatlari va kitobxon tomonidan qabul qilinishi haqida fikrlar uchraydi. Bu esa mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi. Mavjud adabiyotlar tarjimaning nazariy asoslari, ingliz adabiyoti tarjimalarining tajribasi va Husayniy romanlarining umumjahon adabiyotidagi o'rni haqida muayyan ilmiy manbalarni beradi. Shu bilan birga, uning asarlarining o'zbekchadagi tarjimalarini badiiy va lingvistik jihatdan tahlil qilish hali to'liq o'rganilmagan soha sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda Xolid Husayniy romanlarining o'zbek tiliga qilingan tarjimalari lingvistik, badiiy-estetik va madaniy nuqtai nazardan keng qamrovda tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi tarjima jarayonining murakkab, ko'p qirrali tabiati va madaniyatlararo kommunikativ ahamiyatini hisobga olgan holda shakllantirildi. Shu sababli unda tarjimashunoslik, stilistika, qiyosiy adabiyotshunoslik hamda madaniyatshunoslik kabi sohalarga oid ilmiy yondashuvlar uyg'unlashtirildi.

Birinchidan, matnlararo qiyoslash metodi asosiy tahlil vositasi sifatida qo'llanildi. Bu usul yordamida asliyat matnlari (ingliz tilidagi nashrlar) va ularning o'zbekcha tarjimalari o'zaro taqqoslanib, semantik, sintaktik va

stilistik o'zgarishlar aniqlangan. Tarjima jarayonida leksik birliklarning o'zgarishi, metafora va iboralarning o'zbek poetik tilidagi ekvivalent shakllari, shuningdek, muallifning badiiy uslubi qanday saqlanib qolganligi tahlil qilindi. Ushbu yondashuv tarjimonlarning so'z tanlovi, grammatik moslashtirish va semantik kompensatsiya kabi usullarni qo'llash xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi.

Ikkinchidan, lingvistik-stilistik tahlil yordamida tarjima matnlarining badiiy-estetik jihatlari o'rganildi. Xususan, aslyatdagi ekspressiv vositalar, ohang, emotsional intensivlik, dialogik tuzilma va psixologik tasvirlar tarjimada qanday darajada ifoda topgani ko'rib chiqildi. Bu yondashuv orqali tarjimalarda muallifning individual uslubiy belgilari va ularning o'zbek adabiy tilidagi qayta talqinlari baholandi.

Uchinchidan, tadqiqotda madaniyatshunoslik yondashuvi qo'llanilib, ingliz va afg'on madaniyatlariga xos realiyalar, diniy va ijtimoiy tushunchalarning o'zbek kitobxoniga qanday yetkazilgani tahlil qilindi. Tarjimonlarning madaniy tafovutlarni kamaytirish uchun qo'llagan strategiyalari – izohli tarjima, milliyashtirish (domestikatsiya), xorijlashtirish (foreignizatsiya), soddalashtirish va ekvivalent almashtirish – ilmiy asosda o'rganildi. Shu bilan birga, tarjimada madaniy kontekstning yo'qolmasligi yoki buzilmasligini ta'minlovchi lingvistik yechimlar aniqlab borildi.

To'rtinchidan, tarjimonlik strategiyalarini aniqlash metodi asosida har bir tarjimonning individual yondashuvi tahlil qilindi. Bu jarayonda aslyatga sodiqlik va ijodiy erkinlik o'rtasidagi muvozanat, dinamik va formal ekvivalentlik nazariyalarining amaliy ifodasi o'rganildi. Tarjima strategiyalari asarning badiiy-estetik darajasiga va kitobxon tomonidan qabul qilinishiga qanday ta'sir etgani ham baholandi.

Beshinchidan, tadqiqotda integrativ yondashuvdan foydalanildi, ya'ni tilshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik metodlari o'zaro uyg'unlashtirildi. Bu yondashuv tarjimoni faqat til o'zgarish jarayoni

sifatida emas, balki badiiy, estetik va sotsiokultural hodisa sifatida o'rganish imkonini berdi. Shu asosda Husayniy romanlarining o'zbek tilidagi tarjimalari lingvistik aniqlik, madaniy ekvivalentlik va badiiy moslik mezonlari bo'yicha baholandi.

Natijada, tadqiqot metodologiyasi tarjimalarning nafaqat lingvistik, balki madaniy va estetik qirralarini ham yoritishga xizmat qildi. Bu esa Xolid Husayniy asarlarining o'zbek tilidagi tarjimalarini ilmiy jihatdan mukammalroq tahlil qilish, tarjima strategiyalarining samaradorligini baholash va o'zbek tarjimachilik amaliyotidagi yangi yondashuvlarni aniqlash imkonini berdi.

Asosiy qism

Xolid Husayniy XXI asr jahon adabiyotining yorqin vakillaridan biri sifatida nafaqat ingliz tilida, balki dunyo miqyosida keng o'quvchilar auditoriyasiga ega bo'ldi. Uning "Chimildiq uchuvchi" (*The Kite Runner*), "Ming quyosh shukuhida" (*A Thousand Splendid Suns*) va "Tog'lardan aks-sado" (*And the Mountains Echoed*) kabi romanlari o'zbek tiliga ham tarjima qilinib, milliy kitobxonni yangi adabiy-estetik olam bilan tanishtirdi (Hosseini, 2003). Ushbu tarjimalar orqali o'zbek kitobxonni Afg'oniston tarixidagi ijtimoiy-siyosiy voqealar, insoniy fojialar, muhojirlik kechinmalari hamda oilaviy munosabatlarning murakkab qirralaridan xabardor bo'ldi.

O'zbek tilidagi tarjimalar lingvistik va uslubiy jihatdan murakkab jarayon natijasi bo'lib, tarjimonlar oldida bir qator masalalar turgan. Birinchi navbatda, asarlarda uchraydigan afg'on jamiyatiga xos termin va tushunchalar – "nang", "zanana", "hazar", "pashtun" kabi so'zlar kitobxoniga qanday yetkazilishi muhim bo'lgan. Ularning ba'zilari transliteratsiya qilingan, ba'zilari esa izohlar bilan boyitilgan. Shuningdek, metafora va obrazlar o'zbek poetik tilida ekvivalent shaklda berilib, matnga ohangdorlik va badiiy kuch qo'shilgan. Masalan, "a thousand splendid suns" iborasi "ming quyosh shukuhida" shaklida tarjima qilinib, o'zbek kitobxonida ham estetik ta'sir uyg'otgan.

Badiiy-estetik jihatdan qaralganda, Husayniy romanlari asosan inson ruhiyati, fojialar va ijtimoiy adolat mavzusiga bag'ishlangan. Tarjimalarda qahramonlarning ichki monologlari, ruhiy iztiroblari tabiiy va jonli tarzda ifoda topgan. Urush manzaralari, jamiyatdagi zo'ravonlik va ijtimoiy tengsizlik tasviri ham o'zbek tilida badiiy qudratini saqlagan. Ayniqsa, oilaviy munosabatlar tasviri milliy kitobxonga begona bo'lmagan holda, aslyatdagi dramatismni ham o'zida mujassam etib berilgan.

Tarjimonlarning yondashuvlari ikki yo'nalishda ko'zga tashlanadi: aslyatga sodiqlik va ijodiy moslashtirish. Bir tomondan, tarjimon muhim iboralar va madaniy detallarning asl ma'nosini saqlashga intilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, matnning o'zbek kitobxoniga ravon va tushunarli bo'lishi uchun ijodiy erkinlikka murojaat qilgan. Natijada, tarjimalarda milliy ohangdorlik kuchaygan, ammo ba'zan asl matndagi ma'lum qatlamlar soddalashtirilgan (Khamidov, 2024).

Madaniy kontekstning yetkazilishi ham tarjimalarda muhim rol o'ynagan. Ingliz va afg'on jamiyatiga oid diniy, ijtimoiy va tarixiy tushunchalar o'zbek kitobxoniga uchun moslashtirilib, izohli yoki mos so'zlar orqali berilgan. Bu esa kitobxon uchun asarni qabul qilishni yengillashtirgan, shu bilan birga, tarjimalarga ma'lum darajada milliy tus ham qo'shgan.

Xolid Husayniy romanlarining o'zbek tiliga tarjima qilinishi milliy adabiy jarayonga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Avvalo, murakkab psixologik tasvirlar o'zbek nasrida chuqurroq ishlash uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Urush, muhojirlik, insoniy fojia kabi mavzular zamonaviy o'zbek adabiyotida ham yanada faolroq ko'tarila boshlandi. Eng muhimi, tarjimalar orqali milliylik va umuminsoniylik uyg'unlashib, o'zbek kitobxoniga global adabiy jarayonga yaqinlashdi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Xolid Husayniy romanlarining o'zbek tiliga qilingan tarjimalari nafaqat lingvistik moslik, balki

madaniy va estetik ekvivalentlik nuqtai nazaridan ham murakkab, ammo muvaffaqiyatli jarayon hisoblanadi. Tarjima jarayonida turli metod va strategiyalarning uyg'un qo'llanilishi aslyat ruhini saqlash bilan birga, o'zbek kitobxoniga uchun ravon va tabiiy matn yaratish imkonini bergan.

Birinchi, matnlaro qiyosiy tahlil natijasida tarjimalarda leksik va semantik ekvivalentlik darajasi yuqori ekani aniqlangan. Tarjimonlar aslyatdagi asosiy ma'no qatlamlarini saqlagan holda, ba'zi joylarda milliy tilning tabiiy imkoniyatlaridan foydalangan. Metaforalar va badiiy tasvir vositalarining aksariyati o'zbek tilida adekvat, ohangdor shaklda berilgan. Masalan, "A Thousand Splendid Suns" iborasining "Ming quyosh shukuhida" shaklida tarjima qilinishi semantik hamda poetik jihatdan muvaffaqiyatli yechim sifatida baholandi.

Ikkinchi, lingvistik-stilistik tahlil natijasida tarjimalarda muallif uslubining asosiy belgilari – lirizm, ruhiy introspeksiya, dialogik dinamika va psixologik dramatism – saqlanib qolgan. Tarjimonlar personajlarning ichki monologlarini, ruhiy kechinmalarini o'zbek adabiy tili imkoniyatlarida tabiiy va ta'sirchan shaklda ifoda etgan. Biroq ayrim hollarda aslyatdagi sintaktik murakkablik soddalashtirilgan, bu esa matnni o'qish qulayligini oshirgan, lekin ba'zi estetik qatlamlarning yo'qolishiga sabab bo'lgan.

Uchinchi, madaniyatshunoslik yondashuvi asosida aniqlanishicha, tarjimonlar madaniy tafovutlarni yengillashtirish uchun turli strategiyalarni qo'llaganlar: izohli tarjima, ekvivalent almashtirish, transliteratsiya va milliyashtirish. Afg'on jamiyatiga oid "nang", "zanana", "hazar", "pashtun" kabi realiyalar o'zbek kitobxoniga uchun tushunarli shaklda izohlangan yoki moslashtirilgan. Shu orqali tarjimalarda madaniy kontekstni saqlash bilan birga, o'quvchi uchun kommunikativ aniqlik ta'minlangan.

To'rtinchi, tarjimonlik strategiyalarini aniqlash natijalari shuni ko'rsatdiki, asarlar tarjimasida aslyatga sodiqlik va ijodiy erkinlik

o'rtasidagi muvozanat saqlangan. Tarjimonlar literal tarjimadan voz kechib, dinamik ekvivalentlik tamoyiliga tayanib ishlaganlar. Bu yondashuv o'zbek tilining ekspressiv imkoniyatlarini ochib bergan va matnning badiiy kuchini saqlab qolgan.

Beshinchidan, tarjimalarning umumiy bahosi shuni ko'rsatadiki, Husayniy romanlari o'zbek adabiyotida psixologik nasr, urush va muhojirlik mavzularini yoritishdagi yangi bosqichni boshlab bergan. Tarjimalar o'zbek o'quvchisining global adabiyotga qiziqishini kuchaytirgan, madaniyatlararo muloqotni kengaytirgan va milliy nasrda inson ruhiyatini chuqur tasvirlashga turtki bo'lgan.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Xolid Husayniy asarlarining o'zbek tilidagi tarjimalari badiiy yetuklik, lingvistik aniqlik va madaniy moslik mezonlariga javob berishini tasdiqlaydi. Bu tarjimalar orqali o'zbek kitobxonni nafaqat boshqa xalqning tarixiy taqdirini, balki umuminsoniy qadriyatlarining universalligini ham chuqur anglash imkoniga ega bo'lgan. Shu tariqa, Husayniy asarlarining o'zbek tilidagi talqinlari zamonaviy o'zbek tarjimachiligining muhim yutug'i sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Xulosa

Xolid Husayniy romanlarining o'zbek tiliga qilingan tarjimalari nafaqat tarjimachilik amaliyotida, balki milliy adabiy jarayon rivojida ham muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tarjimalar orqali o'zbek kitobxonlari Afg'onistonning yaqin tarixiy davrlari, urush va

muhojirlikning og'ir oqibatlarini, insoniy fojialar hamda ruhiy iztiroblar bilan tanishdilar. Bu jarayon milliy adabiyotimizning mavzu doirasini kengaytirdi va global adabiy jarayonga yaqinlashish imkonini yaratdi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, tarjimonlar oldida bir nechta murakkab vazifalar turgan: asliyatga sodiqlikni saqlash, milliy ohangdorlikni yaratish, madaniy kontekstni kitobxon ongiga tushunarli yetkazish va badiiy-estetik ta'sirni yo'qotmaslik. Ko'pincha ular so'zma-so'zlikdan voz kechib, milliy til imkoniyatlariga tayanib ekvivalentlikka erishdilar. Bu jarayon ayrim hollarda asl matn qatlamlarining soddalashtirilishiga olib keldi, biroq umumiy ruhiyat va dramatik kuch saqlanib qoldi.

Husayniy asarlarining tarjimalarida milliyashtirish, moslashtirish, izohli tarjima kabi strategiyalardan foydalanilgan. Bu strategiyalar kitobxonning asarni qabul qilishini yengillashtirdi va tarjimalarni o'zbek madaniy makoniga yaqinlashtirdi. Shu bilan birga, tarjimalarda muayyan ijodiy erkinlik kuzatilib, tarjimonning shaxsiy uslubi ham sezilib turadi.

O'zbek adabiyotiga ta'sir nuqtai nazaridan qaralganda, Husayniy romanlarining tarjimalari bir necha yangiliklarni olib kirdi. Birinchidan, nasrda psixologik tasvir chuqurlashdi. Ikkinchidan, urush, muhojirlik va insoniy iztiroblar mavzusi yanada kengroq o'rganila boshlandi. Uchinchidan, milliylik va umuminsoniylik o'rtasidagi uyg'unlik kitobxonning estetik didini boyitdi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Hosseini K. (2003). *The Kite Runner*. – New York: Riverhead Books,
2. Ahmad, A. (2018). *Trauma, Memory, and Narrative in Khaled Hosseini's Works*. – Journal of Postcolonial Literature.
3. Oybek. (1960). *Tarjima san'ati haqida*. – Toshkent: Adabiyot va san'at.
4. Khamidov X. K., Bultakov, I. Y., Raxmanberdiyeva, K. S., Kasimova, S. S., & Sodiqova, S. B. (2024). Linguistic Expertise of Educational Literature: Analysis and Results. *Journal Power System Technology*, 48(4), 4017-4027.

CONTENTS

LINGUISTICS		4
Xaydarova D.Z.	Zamonaviy diplomatik terminlarning shakllanishi va ularning milliy tillarga o'zlashuvi	5
Madolimov X.Sh.	Grimm ertaklarida mantiq va poetik o'xshashliklar	11
Xamrayeva Z.X.	Murakkab sintaktik qurilmalarning derivatsion va semantik xususiyatlari: nazariy asoslar va tahliliy yondashuvlar	20
Anarkulova Z.F., Niyadullayeva S.Sh.	Yevropa va o'zbek adabiyotshunoslari nazarida Bobur obrazining poetik talqini	27
Мавлонова Н.А.	Понятия фразеологической единицы (ФЕ)	33
Болтабоева У.М.	Лингвокультурные особенности эвфемизмов как отражение национального мировидения	41
Xodjayeva Sh.R.	Erkalash metaforalarini o'zbek tiliga tarjima qilish xususiyatlari	45
Ismoilova Z.A., Axmedova N.R., Usmonova M.T.	Badiiy matnda "sukut" nutq aktining turli funksiyalari	50
Mukhammadjonova A.G'.	Consuming Passions: Sidney Sheldon, the 'Female Gothic' of the 1980s, and the Psychology of the Woman Reader	56
Qarshiyeva N.T.	The importance of word stress in English and Uzbek languages: a comparative analysis	63
Nosirova Sh.U.	Ingliz kasbiy muloqotida noverbal vositalarning ahamiyati	71
Абдуганиева Дж.Р.	Современная герменевтика и интерпретация медиатекстов в цифровую эпоху	77
Burieva N.G.	Common and distinctive linguocultural features of the concepts of nationality and personality in the English and Uzbek languages	83
Turaboeva K.E.	Genre features of English and Uzbek drama on the example of Richard Brinsley Sheridan and Erkin Vokhidov	88
Жураева Ю.Р.	Сравнительное исследование фразеологических единиц с цветовым компонентом в немецком и узбекском языках	94
Qurbonov P.A., Khamrokulov B.A.	The mystery genre in English poetry: historical roots and literary evolution	100
Sattorova Sh.Sh.	Modallik kategoriyasining ingliz va o'zbek ertaklarida madaniy ma'no ifodalashi	106
Hafizov S.B.	The role of 'Head' as a semantic center in lexical fields: English and Uzbek compared	112
Сафаров Ш.С., Холматова В.Н.	Бадий матн композицияси ва сўроқ гаплари	124
Abdullayeva I.M.	Complexities in understanding satire	130

Said-Axmedova Sh.N.	Agentlik fenomenining umumiy tilshunoslikdagi o'рни va tarixiy taraqqiyoti	135
Asadov R.M., Eshboeva S.A.	Componential analysis of syntactic units on the base of syntactic valence	141
G'aniyeva B.M.	"Bulg'atil mushtaq" hamda "Tarjumon turki" asarlarida buyruq mayli	151
Rakhimova Z.	Lexical and semantic groups of turkisms in "Caucasian tales" by L.N. Tolstoy	158
Paluanova K.D.	Linguodidactics as an evolving science of language education	164
Jambulova A.D.	Aesthetic and philosophical layers of the concept "love" in English renaissance poetics	171
Ergashova R.T.	Linguistic features of aviation abbreviations and acronyms	179
Xudayberganova M.M.	Bolalar reklama matnlarining sintaktik dizayni: yosh, mahsulot va media formati kontekstida	186
Muxammadiyeva M.E.	Maqollar qiyosiy tilshunoslik va lingvodidaktikaning ob'yekti sifatida	193
Xolmatova G.B.	Ijtimoiy tarmoqlar tilinig lingvistik xususiyatlari	199
Исмоилова Р.Б.	Наивная лингвистика в интернете и трансформация коммуникативных норм в образовательном дискурсе	205
Eshmurodova G.	Pragmalinguistic Analysis of the Category of Impersonality in the Uzbek Language	210
Karaxodjayeva M.X.	Sun'iy intellekt vositalari va akademik yozuv: lingvistik muammo va yechimlar	216
Аминова Д.Х.	Полисемия как системообразующий признак военной терминологии	223
Jumaqulova Sh.Q.	O'zbek tili misolida frazeo-semantik maydon	229
G'aniyeva N.G'.	Resistance Literature in the Twentieth Century: A Multidisciplinary Perspective	235
Samigova Kh.B.	"Affection" and its relation to other linguistic phenomena	240
Ruzmetova D.A.	Ingliz tilidagi ilmiy terminlarni idrok etishning psixologik jihatlari	247
Kholmurodova K.K.	Oscar Wilde's unique literary style and its interpretation by literary scholars	252
Sharipov F.	Discursive-pragmatic study of the category of wish/desire in English and Uzbek	258
PEDAGOGY		264
Asilova G.A.	O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish	265
Ibragimova G.X.	Talabalar hayotida ma'naviy va ma'rifiy tadbirlarning o'рни	271

Раджабова Х.А.	Интеграция принципов комбинаторной лингвистики в методику развития лексико-коллокационной компетенции	281
Rustamova Sh.Sh.	Chet tilini o'qitish jarayonining o'ziga xos tomonlari	288
Azzamov Y.R.	Filolog talabalarga ingliz tilini o'qitishda mustaqil ta'lim kompetensiyasini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish	297
Djalolov F.F.	The problem of full-mastery technology of educational content in general secondary schools	302
Djumaeva G.A.	The effectiveness of blended learning in teaching English for specific purposes (ESP) to students of economics	309
Niyozova Y.T.	Teaching geological idioms and collocations in ESP classes	315
Salimjonova N.B., Samatova B.R.	Developing professional communicative intercultural competence (PCIC) in legal education: integrating language, culture, and technology	320
Shonazarov M.E.	Viewing the e-learning environment through the lens of traditional teaching in teaching English	327
Turayeva N.N.	Oliy harbiy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitishda mediakontent texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati	333
Kholmuradova L.E., Djurakulova D.A.	Integrating Learner-Centered, Task-Based, and Self-Assessment approaches in contemporary English language education	340
Axmadaliyeva X.A.	Yuqori sinf o'quvchilarining kasbiy kompetentligini xalqaro ijtimoiy standartlar orqali rivojlantirish	347
Zarpillayeva Sh.Z.	Edyuteynment texnologiyasi – xorijliklarni o'zbek tilida mulohazaga o'rgatishning intensiv vositasi sifatida	354
Saydikramova U.X.	Storytellingning tarixiy rivoji va zamonaviy til o'qitishdagi didaktik ahamiyati	361
Odiljonova N.	Tinglab tushunish kompetensiyasini kognitiv psixolingvistik jihatdan o'rganish	367
Turayeva K.T.	Motivational determinants in the process of learning English as a foreign language	374
Alimova K.M.	Ta'lim jarayonida kichik dars uslubi orqali shakllanadigan reflektiv davrning bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik qaror qabul qilish ko'nikmalariga ta'siri	380
Авлиякулов З.А., Пономарева Л.И.	Педагогические условия подготовки студентов педагогического вуза к преподаванию русского языка	387
Усаров Р.Х., Пономарева Л.И.	Формирование коммуникативной компетентности у студентов в процессе изучения русского языка в педагогических вузах Узбекистана	394
TRANSLATION		402
Abidova Z.X.	Xolid Husayniy asarlarining o'zbek tilidagi tarjimalari va ularning badiiy xususiyatlari	403